



**TEXNOLOGIK TA'LIM METODIKASINI RAQAMLI TA'LIM PLATFORMA
ORQALI O'QITISH.**

Muhiddinova Gavharshodbegim Tursunxo'ja qizi

Termiz davlat Pedagogika Instituti Tabiiy va aniq fanlar fakulteti Texnologik ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar, raqamli texnologiyalardan amaliy fanlarni o'qitishda foydalanish va ularning samarasi haqida ma'lumotlar beriladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning tezligi juda rivojlangan. Texnologiya fanini o'qitishda ham raqamli talim platformalari samarali natijalar bermoqda.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, raqamli texnologiya ta'lim tizimi vositalari, interaktiv darslar, axborot vositalari, amaliy fanlar, texnologiyalar.

Аннотация. В этой статье представлена информация о цифровых технологиях, использовании цифровых технологий в преподавании прикладных наук и их эффективности. Сегодня цифровые технологии развиваются стремительно. Скорость цифровых технологий развивалась очень быстро. Цифровые обучающие платформы также дают эффективные результаты в преподавании технологических наук.

Ключевые слова: Цифровые технологии, инструменты образовательной системы цифровых технологий, интерактивные уроки, информационные носители, прикладные науки, технологии.

Abstract. This article provides information about digital technologies, the use of digital technologies in teaching applied sciences and their effectiveness. Today, digital technologies are developing rapidly. The speed of digital technologies has developed very rapidly. Digital learning platforms are also giving effective results in teaching technological sciences.

Keywords: Digital technologies, digital technology educational system tools, interactive lessons, information media, applied sciences, technologies.

KIRISH. Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining o'rni ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Hozirda ta'lim sifatini ko'tarishda





raqamlashtirish jarayoni boshlangan. Ta'lim oluvchi tomonidan raqamli platformalarda darslarni o'qitish, bilim olish, yangi ixtirolar yaratish va o'zlashtirish ancha tez. Raqamli texnologiyani o'zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin.

Texnologiya darslari zamonaviy vositalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, raqamli yechimlarni qabul qilish uchun qulay zamin yaratadi. Raqamli texnologiyalar hozirgi kunda texnologiya darslarida qanday qo'llanishi, ularning o'rganishga ta'siri va kelajakdagi foydalari o'rganiladi. Ushbu yondashuvlarda usul va yondashuvlardan foydalaniladi, jumladan:

Sinf xonalarida raqamli vositalardan foydalanish haqida o'qituvchi va talabalarning fikr-mulohazalarini sifatli tashkil qilish;

An'anaviy va raqamli rivojlangan o'qitish usullari o'rtasidagi qiyosiy tahlillar.

Ma'lumotlar kengaytirilgan haqiqat (AR), 3D modellashtirish va kodlash simulyatorlari kabi raqamli vositalarni qabul qilgan akademik muassasalardan to'plandi.

Raqamli texnologiyalar texnologiya darslarini o'tkazish usulini sezilarli darajada yaxshilab, interaktiv, samarali va keng qamrovli qildi. Raqamli platformalarning texnologiya darslarida ba'zi ilovalari:

Interaktiv ta'lim platformalari:

Aqlli taxtalar: o'qituvchilarga videolar, animatsiyalar va interaktiv diagrammalar yordamida dinamik darslarni taqdim etish imkonini beradi.

Ta'lim dasturi: SAPR (kompyuter yordamida loyihalash) kabi dasturlar talabalarga muhandislik va dizayn yaratishga yordam beradi, 3D modellarni yaratish va boshqarish imkonini beradi.

Virtual simulyatsiyalar .





Simulyatorlar: talabalar haqiqiy jihozlarga ishlov berishdan oldin virtual muhitda sxemani loyihalash yoki mashinani ishlatish kabi murakkab jarayonlarni mashq qilishadi, talabalar mexanik tuzilmalarni yoki loyatoriya tajribalarini o'tkazishadi.

Raqamli baholash.

Viktorinalar va topshiriqlar: Kahoot kabi vositalar, Quizizz va boshqa LMS (Learning Management Systems) o'qituvchilarga interaktiv viktorinalar yaratish va talabalar taraqqiyotini kuzatishni osonlashtiradi.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash texnologiya sinflariga bir necha foyda keltiradi. Bu turli xil ta'lim uslublariga mos keladigan interaktiv ta'lim tajribalarini ta'minlaydi. Biroq, o'qituvchilarni tayyorlash talablari va an'anaviy amaliy ko'nikmalarini kamaytirishi mumkin bo'lgan texnologiyalarga ishonish kabi muammolarni tan olish juda muhimdir.

"Texnologiya" faniga yangi texnologiyalarni integratsiya qilish bo'yicha tadqiqot olib borgan Peppelning fikricha, ushbu kengayib borayotgan ta'lim bo'shliqlari uchun bir nechta yechimlar mavjud bo'lsa-da, 21- asrning tanqidiy fikrlash kompetentsiyasiga ega bo'lgan yoshlarini tayyorlash jarayonida o'quvchilarni bilim olishga faol jalb qilishning bir usuli zarur. Bu jarayonda, raqamli texnologiyalar, xususan, Internet, mobil ilovalar, multimedia mahsulotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega va bu o'qituvchilar hamda o'quvchilarga kerakli ma'lumotlarni oz fursatda topish va darsni qo'shimcha manbalar bilan ta'minlash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, agar tasviriy san'at darsi ishtirokchilarida Internet aloqasi mavjud bo'lsa, ular har qanday vaqtda bir-birlari bilan kitob va boshqa manbalarni almashinish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Shuningdek, umumta'lim maktablarida raqamli texnologiyalarning tarkibiga kiruvchi media mahsulotlardan, kompyuterlardan foydalanib "Texnologiya" fani darslarni tashkil etish orqali o'quvchilarda texnologiyalardan foydalanish kompetentsiyalarini shakllantirish mumkin. Bu orqali o'qituvchiga yangi kreativ yondashuv va uslublarni namoyish etish imkoni yuzaga keladi. "Texnologiya" fani darslarida kompyuterlarning mavjudligi o'qituvchilarga darslarni rejalashtirishda va odatda o'quvchilarga sinf sharoitida ko'rsatib bo'lmaydigan yangi metodlarni joriy etishda yordam berishi mumkin.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar darslardagi interfaollikni ham oshirishga xizmat qiladi. Interfaollik tushunchasi bu yangi muhitda o'rganish haqida fikr yuritganimizda asosiy xususiyatga aylanadi. Ta'lim nazariyotchilari o'tmishda sinf sharoitida interaktivlikka katta e'tibor berishgan, lekin asosan guruhda muammolarini





hal qilish, guruhli muhokama, qisqa namoyishlarni kiritish yoki qisqa, asossiz yozish kabi ta'lim strategiyalariga e'tibor berishgan, mashqlar, so'ngra munozara va fikr-mulohazalar, bahs-munozaralar, muammolarni hal qilish modellari va rolli o'yinlaridan foydalanishgan. Hozirda esa mazkur metodlar bilan bir qatorda yangi vositalar orqali interaktivlikning o'rni va uning faol ta'lim bilan aloqasi o'rganilmoqda. Raqamli platformalar bugungi kunda texnologiya fanida juda ko'p imkoniyatlar taqdim etmoqda. Tikuvchilik va dizayn sohaslarida ham GeminiCAD, AutoCAD dasturlari asosida 3D modellashtirish, loyiha va chizmalar yaratish dasturlash imkonini beradi.

Tikuvchilik va dizayn sohasini ilg'or raqamli texnologiyalar asosida kiyimlarni loyihalash, bichish, andozalar olish, export va import qilishda Hindiston yetakchi o'rinlarda turadi. Raqamli platformalar juda kuchli rivojlangan. Robototexnika sohasida ham aynan rivojlangan texnologiyalar asosida o'qitilishi o'quvchilar yangidan yangi loyihalar, tajribalar va ixtirolar yaratishi uchun zamin yaratib bermoqda. "Texnologiya" fani darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik shartsharoitlari, xususan modul va uning tarkibiga kiruvchi mavzular yuzasidan takliflar va tasviriy san'at xonasi uchun qo'yiladigan talablar ishlab chiqildi. Raqamli platformalar orqali o'qitishning afzalliklari: joy va vaqt tejaladi, o'quv materiallariga qayta qayta murojat qilish, o'qitish va raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'rgatadi. Shu bilan birga kamchiliklar ham mavjud: o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining pastligi, interaktiv darajasining yetarli emasligi hamda internetga kirish imkoniyati cheklangan hududlar mavjulligi. Texnologik ta'lim metodikasini raqamli platformalar orqali o'qitish- bu nafaqat zarurat, balki istiqbolli yondashuvdir. Bu jarayon pedagogik mahoratni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni. - Elektron resurs <https://lex.uz/docs/4312785>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. 2022 yil 28 yanvardagi PF60-son.





3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari. 2022 yil 11 maydagi PF-134- son
4. Abdullayeva M. , Xodjayev N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". –Toshkent:O'qituvchi,2020.
5. G'ulomov S.S. , Kattabekov S.X. "Axborot texnologiyalari va ularni ta'limda qo'llash". –Toshkent:Fan va texnologiya. 2021-yi.
6. Solihov B.S. , Jo'rayev B.A. "Mehnat ta'limi va uni o'qitish metodikasi".2019-y.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi. "Texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar".-Maqolalar to'plami, 2021-yil.

